



AN ANALYSIS OF THE HARMONIZATION BETWEEN THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THE "HIDAYA" REGARDING WOMEN'S RIGHTS AND FREEDOMS IN MUDARABAH AGREEMENTS

Dinora Eshboyeva

Master's student of the International Islamic Studies Academy of

Uzbekistan, dinoraeshboyeva4@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22045188>

ARTICLE INFO

Received: 15th August 2026

Accepted: 20th August 2026

Online: 21st August 2026

KEYWORDS

"Hidaya", Islamic law, women, mudarabah, contract, economic law, freedoms, code, law, article, entrepreneurship, property ownership, freedom of labor.

ABSTRACT

This article provides a comparative legal analysis of women's rights and freedoms in mudarabah agreements on the basis of the "Hidaya" and the legislation of the Republic of Uzbekistan. The study examines women's participation in property relations, their engagement in entrepreneurial activities, and their legal status within investment partnerships under Islamic law. Furthermore, the article scientifically explores the similarities and differences between the civil, family, and business law provisions of the Republic of Uzbekistan and the fiqh principles set forth in "Hidaya". Particular attention is given to the reflection of women's economic freedom, inviolability of property, and contractual rights in both national and Islamic legal sources. As a result of the research, common principles between the modern legal system and Hanafi jurisprudence are identified, and conclusions are drawn regarding their practical significance.

АНАЛИЗ АСПЕКТОВ ГАРМОНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ПРОИЗВЕДЕНИЯ "ХИДАЯ" ПО ВОПРОСАМ ПРАВ И СВОБОД ЖЕНЩИН В ДОГОВОРАХ МУДАРАБА

Динора Эшбоева

Магистрантка Международной академии исламоведения Узбекистана,

dinoraeshboyeva4@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22045188>

ARTICLE INFO

Received: 12th August 2026

Accepted: 18th August 2026

Online: 19th August 2026

KEYWORDS

"Хидая", исламское право, женщины, мудараба, договор, экономическое право, свободы, кодекс, закон, статья,

ABSTRACT

В данной статье проводится сравнительно-правовой анализ вопросов прав и свобод женщин в договорах мудараба на основе "Хидая" и законодательства Республики Узбекистан. В ходе исследования рассматриваются участие женщин в имущественных отношениях, осуществление ими предпринимательской деятельности, а также их правовой статус в инвестиционном партнёрстве с точки зрения исламского права. Кроме того, на



предпринимательство,
право собственности,
свобода труда.

научной основе раскрываются сходства и различия между нормами гражданского, семейного и предпринимательского законодательства Республики Узбекистан и фикховыми положениями, изложенными в труде "Хидая". Особое внимание уделяется отражению экономической свободы женщин, неприкосновенности собственности и права на заключение договоров в национальных и исламско-правовых источниках. В результате исследования выявляются общие принципы современной правовой системы и ханафитского фикха, а также формулируются выводы относительно их практического значения.

AYOLLARNING MUZORABA BITIMI BORASIDAGI HUQUQ VA ERKINLIK LARI MASALASIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIGI VA "HIDOYA" ASARINING UYG'UNLIK JIHATLARI TAHLILI

Dinora Eshboyeva

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi magistranti

dinoraeshboyeva4@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22045188>

ARTICLE INFO

Received: 12th August 2026

Accepted: 18th August 2026

Online: 19th August 2026

KEYWORDS

"Hidoya", islom huquqi, ayollar, muzoraba, bitim, iqtisodiy huquq, erkinliklar, kodeks, qonun, modda, tadbirkorlik, mulkka egalik qilish, mehnat erkinligi.

ABSTRACT

Mazkur maqolada ayollarning muzoraba bitimlaridagi huquq va erkinliklari masalasi "Hidoya" asari hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida islom huquqida ayollarning mulkiy munosabatlarda ishtirok etishi, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi va investitsion sheriklikdagi huquqiy maqomi yoritiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining fuqarolik, oilaviy hamda tadbirkorlikka oid qonunchilik normalari bilan "Hidoya" asarida bayon etilgan fiqhiy qoidalar o'rtasidagi uyg'un va farqli jihatlar ilmiy asosda ochib beriladi. Maqolada ayollarning iqtisodiy erkinligi, mulk daxlsizligi va shartnoma tuzish huquqining milliy hamda islom huquqi manbalarida ifodalanishiga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijasida zamonaviy huquqiy tizim va hanafiy fiqhi o'rtasidagi mushtarak tamoyillar aniqlanib, ularning amaliy ahamiyati yuzasidan xulosalar ishlab chiqiladi.

KIRISH. So'nggi
O'zbekiston Respublikasida

yillarda
amalga

oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar
natijasida inson huquq va erkinliklarini,



xususan, ayollarning iqtisodiy huquqlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayollarning jamiyatdagi o'rni va ularning iqtisodiy jarayonlarda teng ishtirokini ta'minlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo'lib, bu borada Konstitutsiya hamda mehnat, tadbirkorlik va ijtimoiy himoya sohalariga oid normativ-huquqiy hujjatlarda aniq huquqiy kafolatlar mustahkamlangan. Xususan, ayollarning investitsion faoliyat, sheriklik asosidagi bitimlar va tadbirkorlik munosabatlarida teng huquqli subyekt sifatida qatnashishi zamonaviy huquqiy tizimlarning muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, islom huquqida keng qo'llanilgan muzoraba bitimining huquqiy mohiyatini o'rganish hamda unda ayollarning huquqiy maqomini tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan muhimdir.

Islom huquqining hanafiy mazhabiga oid muhim manbalardan biri bo'lgan Hidoya asarida mulkiy munosabatlar, savdo-sotiq, sheriklik va investitsiyaga oid qoidalar batafsil yoritilgan bo'lib, unda ayollarning iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokiga doir fiqhiy qarashlar ham o'z aksini topgan. Mazkur manbada ayolning mulkka egalik qilishi, mustaqil ravishda bitim tuzishi, foyda olish huquqiga egaligi hamda iqtisodiy munosabatlarda subyekt sifatida qatnashishi e'tirof etiladi. Bu esa islom huquqida ayollarning iqtisodiy erkinligi ma'lum darajada huquqiy jihatdan himoya qilinganligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida ham ayollarning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakat Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, Oila kodeksi hamda tadbirkorlik faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarda ayollarning mulkiy huquqlari, mehnat qilish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish va shartnomaviy munosabatlarda erkin ishtirok etish huquqlari kafolatlangan. Shu bilan birga, milliy qonunchilikdagi ushbu normalarning ayrim jihatlari hanafiy fiqhida, xususan, "Hidoya" asarida bayon etilgan qoidalar bilan mushtaraklik kasb etadi.

ASOSIY QISM

"Muzoraba" so'zi "yer ustizda yuzrish", "sayr qilish" qilish degan ma'nolarni bildiradi¹. Islom huquqida istilohiy jihatdan quyidagicha ta'rif beriladi: ikki tomondan biri mablag'i, ikkinchi tomon mehnati bilan qatnashadigan sherikchilik bitimidir. Zamonaviy moliya tili bilan aytganda Muzoraba bu ikki va undan ortiq tomonlarning o'z aktivlarini birlashtirish yoki xizmatlarini, majburiyatlari va mas'uliyatlarini birlashtirish orqali foyda olishni maqsad qilgan kelishuvdir. Muzoraba shartnomasi investitsiyalarni muvofiqlashtirish uchun joriy qilingan. Ba'zi odamlar boy bo'lsa-da, biznes yuritish qobiliyatiga ega bo'lmaydilar, ba'zilar esa biznes tajribasi bor, lekin mablag'i yetarli emas. Muzoraba ushbu ikki tomon manfaatlarini uyg'unlashtirishga imkon yaratadi.

¹ O.Yusupov (va boshqalar). An-Naim-al-kabir: arabcha-o'zbekcha lug'at. – Namangan: Namangan nashriyoti, 2003.



Muzoraba qadimdan keng qo'llanilgan tijorat shakli bo'lib, zamonaviy iqtisodiyotga ham mos keladi. Dastlab tijorat sohasida keng qo'llangan bu instrument hozirda biznes, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi va sanoat faoliyatlarida ham ishlatilmoqda. Shuningdek, muzoraba islomiy moliyasi institutlari uchun muhim instrument hisoblanadi.

An'anaviy banklar moliyaviy vositalarni "ijaraga berish" (foiz asosida kreditlash) tamoyiliga asoslangan bo'lsa, islom moliyasi bunday yondashuvni ribo (foiz) deb biladi va taqiqlaydi. Islom moliya institutlari muzoraba asosida mablag'larni jalb qiladi va ularni turli loyihalarga yo'naltiradi. Shu sababli, muzoraba shartnomasi shariatga muvofiq bo'lgan moliyaviy sherikchilik shakli bo'lib, u tijorat va investitsiyalarni halol yo'l bilan amalga oshirish imkoniyatini beradi².

Muzoraba bitimida ayollar va erkaklar teng huquqli hisoblanadi, ya'ni ayol va erkakning huquqiy maqomi asosan teng hisoblanadi. Ya'ni ayol ham erkak kabi: sarmoya beruvchi (rabbul mol) bo'lishi, ish yurituvchi (muzorib) bo'lishi, foydadan ulush olishi, shart qo'yishi, bitim tuzishi mumkin. Islom huquqida muzoraba bitimida erkaklar uchun va ayollar uchun alohida huquq va majburiyatlar yo'q. Muzoraba shartnomasining asl hukmida ham jins sababli biri ikkinchisidan kam huquqli deyilmaydi. Foyda taqsimoti esa

oldindan kelishilgan nisbat asosida bo'ladi, jinsga qarab emas.

Hanafiyy fiqhida muomala va tijorat boblarida balog'atga yetgan, aqli raso ayolning iqtisodiy tasarrufi mustaqil deb qaraladi. Shu sababli u muzoraba, savdo, ijara kabi bitimlarni o'zi tuzishi mumkin. Qur'onda ham moliyaviy huquqlar borasida ayollarning mustaqil mulkka egaligi tan olingan: "Erkaklarga o'z kasbidan ulush bor, ayollarga ham o'z kasbidan ulush bor"³ (Niso surasi, 32-oyat).

Ammo muzoraba shartnomasining asl hukmida jins sababli biri ikkinchisidan kam huquqli deyilmaydi. Foyda taqsimoti esa oldindan kelishilgan nisbat asosida bo'ladi, jinsga qarab emas.

"Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunning 10-moddasida investorning huquqlaridan biri sifatida shunday deyiladi: "investitsiya faoliyati natijasida olingan daromadni soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin mustaqil va erkin tasarruf etish huquqiga ega"⁴. Qonunda aytilganidek, investor o'z sarmoyasini kiritganidan so'ng foyda olishga kelgan vaqtda dastlab soliqlar, qarzlarni, harajatlar to'lanadi. Bu albatta foydadan to'lab beriladi. So'ng esa foydaning qolgan qismi tomonlar o'rtasida kelishilgan miqdorda taqsimlanadi, buni tomonlar xohlagan tartibda sarflashi mumkin bo'ladi. "Hidoya"da Burhonuddin Marg'inoniy shunday yozadi: "Muhammad

² N.Hakimova, S.Shodmonov. Islomda biznes sherikchilik: fihiy va zamonaviy yondashuvlar [Matn]/N.Hakimova, S.Shodmonqulov. – Toshkent: Umid design, 2026. – B. 139.

³ Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolar tarjimai va tafsiri. – T.: "Toshkent islom universiteti", 2018. – 624 b.

⁴ O'zbekiston Respublikasi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun. 2019-yil 9-dekabr, O'RQ-598-son. Lex.uz: O'zbekiston Respublikasining huquqiy axborot portali. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-4664142>



rohimahulloh deydi: Agar muzoraba ishini yurituvchi kishi (o'zi yashaydigan) shaharda (muzoraba ishini) yuritsa, uning nafaqasi muzoraba molidan bo'lmaydi. Agar u (muzoraba ishi taqozosi bilan) safar qilsa, uning yebichishi, kiyinish va ulovi muzoraba molidan bo'ladi. Buning ma'nosi: (yeyish, ichish, kiyish va minish uchun) sotib olgan yoki ijaraga olgan narsalari muzoraba molidan bo'ladi, deganidir⁵. Ya'ni tijorat moli uchun qilingan harajatlar ham tijorat molidandir. Ammo muzoraba ishini yurituvchi kishi o'zi uchun harajat qilgan bo'lsa, sarmoyadorga avval o'sha mablag'ni qaytaradi. Investitsiya faoliyatida olingan foyda avvalo soliqlar, qarzlar va zarur xarajatlarni qoplashga yo'naltiriladi, shundan keyingina qolgan daromad tomonlar o'rtasida kelishuv asosida taqsimlanadi. O'zbekiston qonunchiligi ham investorning qolgan foydani erkin tasarruf etish huquqini kafolatlaydi. Islom huquqidagi muzoraba qoidalarida ham tijorat faoliyati uchun zarur xarajatlar savdo molidan qoplanishi belgilangan. Demak, ham zamonaviy qonunchilikda, ham fiqh manbalarida foydani taqsimlashdan oldin xarajat va majburiyatlarni qoplash tamoyili muhim o'rin tutadi.

"Ma'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida"gi qonunning 12-moddasi: Jamiyat ustav fondining tarkibida shunday deyiladi: "Jamiyat ishtirokchisining jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushining miqdori

foizlarda yoki kasr ko'rinishida belgilanadi. Jamiyat ishtirokchisi ulushining miqdori uning ulushi nominal qiymati bilan jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) nisbatiga teng bo'lishi kerak⁶". Ushbu moddada bunday shartlarning yozilishi jamiyat ishtirokchisining ulushi aniq va adolatli tarzda belgilanishini ta'minlaydi. Ulushning foiz yoki kasr ko'rinishida ko'rsatilishi har bir ishtirokchining huquqi, foydadagi hissasi va boshqaruvdagi vakolatini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, bu tartib kelajakda nizolar kelib chiqishining oldini olib, jamiyat faoliyatida shaffoflikni ta'minlaydi. Bu qoida islom huquqida ham mavjud bo'lib, shartnomaga tomonlarning ulushi, ya'ni foydadan qancha olishi belgilangan bo'ladi. Bu masala haqida "Hidoya" asarida shunday deyiladi: "Muzoraba sahih bo'lishining shartlari: 1) sarmoya pulining ma'lum bo'lishi. Shunga ko'ra, muzoraba bitimi sherikchilik bitimini tuzish sahih bo'ladigan mollardagina sahih bo'ladi; 2) sarmoyani ishchiga topshirish; 3) sarmoyaning pullar turidan bo'lishi; 4) muzoribning foydadagi ulushining miqdori aytilgan bo'lishi. (Ushbu shartlar topilsa, muzoraba sahih bo'ladi, aks holda u ijara bitimiga aylanib qoladi)⁷". Islom huquqida ulushlar oldindan aniqlab olinmasa muzoraba bitimi sahih emas hisoblanadi. Tomonlarning foydasini hisobga olgan holda, foydadagi ulushlar

⁵ Burhonuddin Marg'inoniy. Hidoya sharh bidoyatil muftadi. A'zamxon Qambarov tarj. – J:5. – T.: Hilol-Nashr, 2024. – B. 362.

⁶ O'zbekiston Respublikasi "Ma'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida"gi Qonun. 2001-yil 6-dekabrda 310-II-son. Lex.uz: O'zbekiston

Respublikasining huquqiy axborot portali. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-4664142>

⁷ Burhonuddin Marg'inoniy. Hidoya sharh bidoyatil muftadi. A'zamxon Qambarov tarj. – J:5. – T.: Hilol-Nashr, 2024. – B. 309.



oldindan shartnomaga kiritilishi qoidasi zamonaviy qonunchilikda va islom huquqida ham mavjud.

XULOSA

Muzoraba shartnomasi islom huquqidagi halol va adolatli sherikchilik shakli bo'lib, u sarmoya va mehnatni birlashtirish orqali foyda olishga xizmat qiladi. Ushbu tizimda tomonlarning huquq va majburiyatlari, foyda ulushlari hamda xarajatlarni qoplash tartibi oldindan aniq belgilanishi muhim hisoblanadi. Islom huquqida ayol va erkakning iqtisodiy huquqlari teng e'tirof etilib, har ikki tomon ham muzoraba bitimida mustaqil ishtirok eta oladi.

Shuningdek, O'zbekistonning investitsiya va korporativ qonunchiligida

ham foydani adolatli taqsimlash, ulushlarni aniq belgilash va investor huquqlarini himoya qilish tamoyillari mustahkamlangan. "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi hamda "Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida"gi qonunlarda foyda va ulushlarning aniq hisob-kitob asosida taqsimlanishi nazarda tutiladi. Bu qoidalar "Hidoya" asarida bayon etilgan muzoraba hukmlari bilan uyg'un bo'lib, zamonaviy iqtisodiy munosabatlarda ham islom huquqining dolzarbligini ko'rsatadi. Demak, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va "Hidoya" asarida shaffoflik, adolat va tomonlar manfaatini himoya qilish asosiy tamoyil sifatida qaraladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun. 2019-yil 9-dekabr, O'RQ-598-son. Lex.uz: O'zbekiston Respublikasining huquqiy axborot portali. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-4664142>
2. O'zbekiston Respublikasi "Ma'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida"gi Qonun. 2001-yil 6-dekabrdagi 310-II-son. Lex.uz: O'zbekiston Respublikasining huquqiy axborot portali. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-4664142>
3. Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolar tarjimasi va tafsiri. – T.: "Toshkent islom universiteti", 2018. – 624 b.
4. Burhonuddin Marg'inoniy. Hidoya sharh bidoyatil muftadi. A'zamxon Qambarov tarj. – J:5. – T.: Hilol-Nashr, 2024. – 624 b.
5. O.Yusupov (va boshqalar). An-Naim-al-kabir: arabcha-o'zbekcha lug'at. – Namangan: Namangan nashriyoti, 2003. – 958 b.
6. N.Hakimova, S.Shodmonov. Islomda biznes sherikchilik: fiqhiy va zamonaviy yondashuvlar [Matn]/N.Hakimova, S.Shodmonqulov. – Toshkent: Umid design, 2026. – 164 b.